

Karimov Rustam Abdurasulovich
Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti

Raxmatova Yulduz Nuriddinovna
Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo chet tillar kafedrası mustaqil
izlanuvchisi

O‘ZBEK–INGLIZ TILLARARO INTERFERENSIYASINING LINGVODIDAKTIK TABIATI, TURLARI VA TIPOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilini o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tillararo interferensiya hodisasining lingvodidaktik tabiati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Interferensiya tushunchasining lug‘aviy va terminologik talqinlari, uning transfer hodisasidan farqlash mezonlari hamda fonetik, leksik, grammatik, semantik, pragmatik va orfografik turlari tizimlashtiriladi. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tipologik masofa — agglutinatив va analitik qurilish, SOV va SVO so‘z tartibi, artikl tizimining mavjud emasligi, fe‘l zamonlari tizimidagi tafovutlar — interferensiya xavfini oshiruvchi asosiy omillar sifatida asoslanadi. Tahlil natijasida muallif tomonidan interferensiyaga kognitiv-lingvistik hodisa sifatida ta‘rif berilib, uni bo‘lajak filologlar tayyorlash jarayonida ongli ravishda boshqarishning lingvodidaktik yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: tillararo interferensiya, transfer, tipologik masofa, oraliq til, xatolar tahlili, o‘zbek tili, ingliz tili, lingvodidaktika, bo‘lajak filolog.

THE LINGUODIDACTIC NATURE, TYPES AND TYPOLOGICAL FACTORS OF UZBEK–ENGLISH INTERLINGUAL INTERFERENCE

Annotation. This article provides a scientific analysis of the linguodidactic nature of interlingual interference arising in the process of foreign language acquisition. The lexical and terminological interpretations of the concept of interference, the criteria for distinguishing it from transfer, and its phonetic, lexical, grammatical, semantic, pragmatic and orthographic types are systematized. The typological distance between Uzbek and English — agglutinative versus analytic structure, SOV versus SVO word order, the absence of an article system, and differences in tense systems — is substantiated as the main factor increasing the risk of interference. As a result of the analysis, the author defines interference as a cognitive-linguistic phenomenon and outlines linguodidactic directions for its conscious management in the training of future philologists.

Keywords: interlingual interference, transfer, typological distance, interlanguage, error analysis, Uzbek, English, language pedagogy, future philologist.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА, ТИПЫ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ МЕЖЪЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ лингводидактической природы межъязыковой интерференции, возникающей в процессе усвоения иностранного языка. Систематизируются лексические и терминологические трактовки понятия интерференции, критерии её разграничения с явлением трансфера, а также фонетический, лексический, грамматический, семантический, прагматический и орфографический типы. Типологическая дистанция между узбекским и английским языками — агглютинативный и аналитический строй, порядок слов SOV и SVO,

отсутствие системы артиклей, различия в системе глагольных времён — обосновывается как основной фактор, повышающий риск интерференции. По результатам анализа автором даётся определение интерференции как когнитивно-лингвистического явления и намечаются лингводидактические направления её осознанного преодоления при подготовке будущих филологов.

Ключевые слова: *межъязыковая интерференция, трансфер, типологическая дистанция, промежуточный язык, анализ ошибок, узбекский язык, английский язык, лингводидактика, будущий филолог.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktika fanlarining kesishmasida tillararo interferensiya muammosi alohida o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq tilni o‘zlashtirish jarayonida ona tili tizimining chet tiliga ko‘chishi — ya‘ni interferensiya — nafaqat lingvistik hodisa, balki ta‘lim samaradorligiga bevosita ta‘sir etuvchi pedagogik muammo sifatida ham ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati sharoitida ingliz tilini kasbiy darajada egallashi lozim bo‘lgan bo‘lajak filologlar nutqidagi interferensiyalar xatolarining tabiatini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili bilan ingliz tilining tipologik jihatdan tubdan farq qilishi — agglutinativ va analitik tuzilish, so‘z tartibi, grammatik kategoriyalar soni, fonologik tizim xususiyatlari — ikki til o‘rtasidagi interferensiya xavfini sezilarli darajada oshiradi va bu holat filologik ta‘limda alohida metodologik yondashuvlarni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda interferensiya tushunchasini birinchilardan bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan U.Vaynrayx uni “ikki til tizimining o‘zaro aloqasi natijasida birining tarkibiy elementlari ikkinchisiga ko‘chib, uning me‘yor va qonuniyatlarini buzishi” deb ta‘riflagan [1]. R.Lado esa qiyosiy tahlil farazi doirasida ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar asosida o‘rganish qiyinchiliklarini oldindan bashorat qilish mumkinligini asoslab, kengroq “transfer” tushunchasini taklif etdi va uning ijobiy, salbiy hamda nol ko‘rinishlarini farqladi [2]. E.Haugen interferensiyaning ikki tillilik sharoitida bir til birliklarining boshqa til birliklarini yanglish aks ettirishi sifatida tahlil qilgan bo‘lsa [3], T.Odlin uni keng qamrovli “tillararo ta‘sir” doirasida talqin etib, ta‘sir darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida ikki til o‘rtasidagi tipologik masofani ko‘rsatdi [4]. L.Selinker “oralik til” (interlanguage) konsepsiyasini ilgari surib, chet til o‘rganuvchining til tizimi ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasida joylashgan mustaqil lingvistik tizim ekanligini asosladi [5]; S.P.Korder esa o‘rganuvchi xatolarini uning hozirgi grammatik tizimi haqida ma‘lumot beruvchi manba sifatida qayta baholashga turtki berdi [6]. Zamonaviy psixolingvistikada S.Jarvis va A.Pavlenko interferensiyaning transferning salbiy quyi turi sifatida qarab, tillararo ta‘sirning leksik-grammatik darajadan tashqari konseptual darajada ham namoyon bo‘lishini isbotladilar [7]. R.Ellis bevosita va bilvosita interferensiyaning farqlab, ikkinchi turdagi ta‘sir o‘rganuvchi tomonidan anglashilmasligi sababli uni bartaraf etish ancha murakkab kechishini ko‘rsatdi [8]. F.Grosjean esa interferensiyaning ikki tilli shaxs nutqining tabiiy tarkibiy xususiyati sifatida baholashga yo‘l ochdi [9]. O‘zbek tilshunosligida U.Yusupov ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma tahlili asosida ikki til o‘rtasidagi tipologik farq o‘zbek tillilar uchun ingliz tilini o‘rganishda interferensiya xavfini sezilarli oshirishini ilmiy asoslagan [11]. Shu bilan birga, mazkur hodisaning bo‘lajak filologlar tayyorlash kontekstidagi lingvodidaktik talqini hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy-qiyosiy tahlil, chog‘ishtirma-tipologik metod, xatolar tahlili (error analysis) hamda tizimlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil bosqichida interferensiya tushunchasiga oid klassik va zamonaviy ta‘riflar qiyosan o‘rganildi; chog‘ishtirma-tipologik bosqichda o‘zbek va ingliz tillarining fonologik, morfologik, sintaktik va pragmatik sathlaridagi tizimli tafovutlari aniqlandi; xatolar tahlili bosqichida filolog talabalar yozma va og‘zaki nutqida kuzatiladigan tipik interferensiyalar xatolar til sathlari bo‘yicha tasniflandi va tizimlashtirildi.

Natijalar va muhokama. Lug‘aviy jihatdan “interferensiya” atamasi lotin tilidagi inter (orasida) va ferire (urmoq, ta‘sir qilmoq) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “o‘zaro aralashish”,

“bir jarayonning ikkinchisiga to‘sqinlik qilishi” ma’nolarini anglatadi [10]. Tilshunoslik va psixolingvistika fanlarida esa u “bir tilning ikkinchi tilga salbiy ta’siri” ma’nosida qat’iy terminologik maqom kasb etgan. Ilmiy ta’riflar majmuasidan kelib chiqib, biz interferensiyaga quyidagicha ta’rif beramiz: tillararo interferensiya — bu chet tilini egallash jarayonida ona tili yoki avvalroq o‘rganilgan tilning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik tizim xususiyatlarining o‘rganilayotgan tilga ko‘chirilishi natijasida yuzaga keladigan, o‘rganuvchi nutqida tizimli xatolar va me’yordan chetlanishlarga olib keluvchi kognitiv-lingvistik hodisadir.

Interferensiyani unga yondosh “transfer” tushunchasidan farqlash muhim metodologik ahamiyatga ega. Transfer ijobiy (o‘rganishni tezlashtiruvchi), nol (ta’sirsiz) va salbiy (xato keltirib chiqaruvchi) ko‘rinishlarga ega bo‘lgan keng qamrovli hodisa bo‘lsa, interferensiya uning faqat salbiy quyi turi hisoblanadi [2; 7]. Interferensiya asosan ongsiz kechadi, tuzatilmasa fossilizatsiyaga — xatoning o‘rganuvchi nutqida mustahkam o‘rnashib qolishiga — olib keladi va shu bois pedagogik jihatdan ustuvor korreksiya obyekti bo‘lib qolaveradi. Interferensiya til tizimining turli sathlarida har xil shaklda namoyon bo‘ladi. Quyidagi 1-jadvalda uning asosiy turlari o‘zbek–ingliz til jufti misolida tizimlashtirilgan.


1-jadval

Tillararo interferensiya turlarining tasnifi (o‘zbek–ingliz tillari misolida)

Interferensiya turi	Mohiyati	O‘zbek–ingliz misoli
Fonetik	Ona tili tovush tizimi, talaffuz qoidalari va prosodik xususiyatlarning chet tiliga ko‘chirilishi natijasida fonetik me’yorlarning buzilishi.	very → [beri]; the → [de]; think → [tink] — o‘zbek tilida [w], [ð], [θ] tovushlari mavjud emasligi ta’sirida.
Leksik	Ona tilidagi so‘zlar, so‘z yasash modellari yoki so‘z ma’nolarining ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ko‘chirilishi.	*make homework (do homework o‘rniga); *open the light (turn on the light o‘rniga); “soxta do‘stlar” (actual → “hozirgi” ma’nosida).
Grammatik	Ona tilidagi morfologik va sintaktik tuzilmalarning ko‘chirilishi natijasida grammatik me’yorlarning buzilishi.	*I book read (SOV tartibi ta’sirida); *She is teacher (artikl tushib qolishi); *He eat yesterday (zamon shakli xatosi).
Semantik	Ona tilidagi so‘z va iboralarning semantik chegaralari hamda ma’no kengligi modelining noo‘rin ko‘chirilishi.	know so‘zini “bilmoq” va “tanishmoq” ikkala ma’noda qo‘llash; do va make farqini e’tiborsiz qoldirish; frazeologizmlarning so‘zma-so‘z tarjimai.
Pragmatik	Ona tilidagi muloqot me’yorlari, nutq aktlari va ijtimoiy-madaniy til qo‘llash qoidalarining ko‘chirilishi.	*Nothing (You’re welcome o‘rniga); *Give me water (Can I have some water? o‘rniga) — to‘g‘ridan-to‘g‘ri iltimos shaklining ko‘chirilishi.
Orfografik	Ona tilidagi yozuv qoidalarining ikkinchi til yozuviga noto‘g‘ri ko‘chirilishi natijasida imlo xatolarining yuzaga kelishi.	*nessesary, *recieve, *tomorow; vergulning o‘zbek modeli bo‘yicha qo‘yilishi: *I know, that... (I know that... o‘rniga).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, interferensiyaning har bir turi o‘ziga xos namoyon bo‘lish mexanizmiga ega: fonetik interferensiya odatda birinchi bo‘lib seziladi, leksik interferensiya soxta do‘stlar va so‘zma-so‘z tarjima orqali aniq namoyon bo‘ladi, grammatik interferensiya esa tipologik jihatdan uzoq tillarda eng kuchli kechadi. Pragmatik interferensiya madaniyatlararo

- 80 muloqotda eng xavfli tur hisoblanadi, chunki nutq aktlarini reallashtirishdagi farqlar soʻzlovchi haqida notoʻgʻri taassurot qoldirishi mumkin. Ushbu turlarning oʻzaro munosabati quyidagi 1-chizmada umumlashtirilgan.



1-chizma. Tillararo interferensiyaning til sathlari boʻyicha namoyon boʻlish turlari

Interferensiyaning intensivligini belgilovchi asosiy omil — ikki til oʻrtasidagi tipologik masofadir [4]. Oʻzbek tili turkiy tillar oilasiga mansub agglutinativ til boʻlib, SOV soʻz tartibiga ega; ingliz tili esa hind-yevropa oilasiga kiruvchi analitik til boʻlib, SVO tartibiga tayanadi. Quyidagi 2-jadvalda ikki tilning asosiy tizimli tafovutlari va ulardan kelib chiqadigan interferensiya koʻrinishlari keltirilgan.

2-jadval

Oʻzbek va ingliz tillarining tipologik tafovutlari va interferensiya koʻrinishlari

Tipologik xususiyat	Oʻzbek tilida	Ingliz tilida	Interferensiya koʻrinishi
Soʻz tartibi	SOV: Men kitob oʻqiyman.	SVO: I read a book.	*I book read — soʻz tartibidagi tizimli xatolar.
Artikl tizimi	Mavjud emas: kitob.	Majburiy: a book / the book.	*She is teacher — artiklning tushib qolishi.
Morfologik qurilish	Agglutinativ: maktabga.	Analitik: to school.	Predlog oʻrniga qoʻshimcha modeli, predloglarni chalkashtirish.
Feʼl zamonlari	Uch asosiy zamon.	12 zamon shakli.	*He eat yesterday — zamon shakllarining aralashtirilishi.
Fonologik tizim	[w], [ð], [θ], [æ] yoʻq.	[w], [ð], [θ], [æ] mavjud.	very → [beri], the → [de] — tovush almashtirilishi.
Soʻroq gap tuzilishi	Ohang yoki -mi yuklamasi.	Yordamchi feʼl inversiyasi.	*He comes? — inversiyasiz soʻroq gap shakli.

Tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻzbek–ingliz tillararo interferensiyasida eng keng tarqalgan koʻrinishlar soʻz tartibining buzilishi, artiklning tushib qolishi va feʼl zamon shakllarining

noto'g'ri qo'llanishidir. Bu xatolar o'rganuvchining ona tilidagi tizimiy qoliplarni tipologik jihatdan muqobil tizimga ega bo'lgan ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishi natijasida yuzaga keladi. Lingvodidaktik nuqtai nazardan muhim xulosa shuki, interferensiyani faqat "xato manbai" sifatida jazolash emas, balki o'rganuvchining oraliq til tizimi haqida ma'lumot beruvchi tabiiy hodisa sifatida ongli tahlil obyektiga aylantirish zarur [5; 6]. Buning uchun talabalarga ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi tizimli farqlarni real til materiallari — xususan, milliy va o'rganuvchilar korpuslari ma'lumotlari — asosida yaqqol ko'rsatish, interferensiyani xatolarni aniqlash, tahlil qilish va tuzatish bo'yicha maxsus mashqlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu yondashuv bo'lajak filologlarda interferensiyani anglash kompetensiyasini shakllantirishning metodologik asosini tashkil etadi.

Xulosa. Tillararo interferensiya — transferning salbiy ko'rinishi bo'lib, ona tilining fonetik, leksik, grammatik, semantik, pragmatik va orfografik tizim xususiyatlarini o'rganilayotgan tilga ongsiz ravishda ko'chirishdan kelib chiqadigan hamda til me'yorlaridan tizimli chetlanishlarga olib keluvchi kognitiv-lingvistik hodisadir. O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi katta tipologik masofa interferensiyani soni va chuqurligini sezilarli oshiradi, shu bois bo'lajak filologlar tayyorlashda ushbu hodisani ongli boshqarishga yo'naltirilgan maxsus lingvodidaktik metodika — jumladan, korpus texnologiyalariga tayangan xatolar tahlili — zarur. Keyingi tadqiqotlarimiz interferensiyani anglash kompetensiyasini korpus texnologiyalari vositasida rivojlantirish metodikasini eksperimental asoslashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – The Hague: Mouton, 1953. – 148 p.
2. Lado R. Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. – 141 p.
3. Haugen E. The Norwegian Language in America: A Study in Bilingual Behavior. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1953. – 695 p.
4. Odlin T. Language Transfer: Cross-linguistic Influence in Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 210 p.
5. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 1972. – №10(3). – P. 209–231.
6. Corder S.P. The significance of learner's errors // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 1967. – №5(4). – P. 161–170.
7. Jarvis S., Pavlenko A. Crosslinguistic Influence in Language and Cognition. – New York: Routledge, 2008. – 287 p.
8. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – 824 p.
9. Grosjean F. Bilingual: Life and Reality. – Cambridge: Harvard University Press, 2010. – 276 p.
10. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
11. Yusupov U.K. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – Toshkent: Akademiya, 2013. – 288 b.
12. MacWhinney B. The Competition Model: the input, the context, and the brain // Cognition and Second Language Instruction / ed. P. Robinson. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 69–90.

Бабаева Шоира Баймурадовна

ф.п.н.(PhD), профессор Бухарского государственного
педагогического института
babayevashoira@buxdpi.uz

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ
КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.
МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ**

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования речевых и лингвистических компетенций в процессе обучения родному языку в начальных классах. Обоснована значимость методики обучения грамотности как средства развития навыков осознанного чтения, грамотного письма и связной речи младших школьников. На основе педагогического эксперимента выявлена эффективность коммуникативно-деятельностных и практико-ориентированных методов обучения, способствующих повышению качества языковой подготовки учащихся.

Ключевые слова: Обучение родному языку, речевая компетенция, лингвистическая компетенция, методика обучения грамотности, начальное образование, младшие школьники, осознанное чтение, связная речь, языковое развитие, коммуникативные навыки.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA NUTQ VA LINGVISTIK
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI.
SAVODXONLIKNI O‘QITISH METODOLOGIYASI**

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish jarayonida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini ko‘rib chiqilgan. Savod o‘rgatish metodikasining kichik yoshdagi o‘quvchilarda ongli o‘qish, savodli yozish va bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Pedagogik tajriba asosida kommunikativ-faoliyatga yo‘naltirilgan va amaliy metodlarning o‘quvchilarning til tayyorgarligi sifatini oshirishdagi samaradorligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Ona tilini o‘qitish, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, savod o‘rgatish metodikasi, boshlang‘ich ta‘lim, kichik yoshdagi o‘quvchilar, ongli o‘qish, bog‘lanishli nutq, til rivoji, kommunikativ ko‘nikmalar.

**METHODOLOGY OF DEVELOPING SPEECH AND LINGUISTIC COMPETENCES
IN TEACHING NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY CLASSES. METHODOLOGY OF
TEACHING LITERACY**

Annotation. The article examines the theoretical and practical aspects of developing speech and linguistic competencies in the process of teaching the native language in primary school. The significance of literacy teaching methodology as a means of developing conscious reading, accurate writing, and coherent speech skills among primary school pupils is substantiated. Based on a pedagogical experiment, the effectiveness of communicative, activity-based, and practice-oriented teaching methods in improving the quality of students' language training has been identified.

Keywords: Native language teaching, speech competence, linguistic competence, literacy teaching methodology, primary education, primary school pupils, conscious reading, coherent speech, language development, communicative skills.